

mahalla fuqarolar yig'ini, xududiy voyaga etmagan yoshlar bilan ishslash inspektori bilan xamkorlikda ishlarni tashkil etishlari lozim. Maktab o'quvchilaridagi salbiy bo'lish xulqi og'ishlarini oldini olish va uni bartaraf etish yuzasidan maktab amalyotchi psixologlari uchun quydagilarni tafsiya etamiz. Ota-onalar yig'ilishlarini noa'naviy tarzda tashkil etish (maktab va maxalla muhitidan kelib chiqqan xolda) mumkin bo'lib, bunda avval sinf xonasiga ota-onalarni taklif etish va davra suhbatlarini tashkil etib, savol-javob orqali ular bilan tanishib olish mumkin. Masalan:

Farzandingiz tug'ilganidan shu kungacha tarbiyalash jarayonida erishgan qanday yutuqlar va kamchiliklarni aytta olasiz?

Farzandingiz katta bo'gach qaysi kasb egasi bo'lishni xoxaysiz?

Farzandingizni o'z qiziqishlari bo'yicha qaysi kasb egasi bo'lishni xoxlayotganligi haqida bilasiz?

Farzandingiz kimga o'xshashini xoxlaysiz?

Kabi savollarga har bir ota-onadan javob olish orqali guruxda muloqotni tashkilashtirishga erishish mumkin murakkablik va muammolarni o'rtaga tashlab, muhokama qilishlari mumkin bo'ladi bir ota-onaning fikr-mulohazalari tinglanadi.

Xulosa: Psixodiagnostik muammolar qo'llashda eng muhimlaridan biridir shaxsni har tomonlama rivojlantrish va uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish maqsadida inson faoliyatining turli sohalarida psixologik bilimlar. Hozirgi vaqtida umumta'lim maktablarda islohotining amalga oshirilishi munosabati bilan ushbu masalalar ta'lim sohasida, birinchi navbatda, umumta'lim maktablarida ham dolzarbdir.

Amaliyotchi psixologlar O'qituvchi faoliyatining psicho-diagnostik komponentini sifat jihatidan yaxshilash mumkinligi haqida dalillar mavjud. malakali psixologik va uslubiy ta'minlash orqali yordam beradi Pedagogik kollejlarda uzlucksiz pedagogik amaliyotni joriy etish o'quv jarayonining barcha ishtirokchilarining o'qish va o'qitishga bo'lgan ijobi motivatsiyasini kuchaytiradi, bu esa ta'limda o'qitish sifatining oshishiga va o'qituvchilarning professional standartida qayd etilgan asosiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib keladi. psixodiagnostik muammolarni hal qilish uchun zarur.

Adabiyotlar ro'xati.

Saidov A. Historical roots of formation of healthy lifestyle culture psychology in the family // International Journal of Pharmaceutical Research. – 2020. – Т. 12. – №. 4. – С. 628-630.

Сайдов А., Джураев Р. Баркамол авлодни тарбиялаш-соғлом турмуш тарзини шакллантиришда спортнинг ўрни //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 2. – С. 203-208

U. Asronova. M.Pardaeva I. Mannapova "Shaxsga yo'naltirilgan metodik xizmat". Toshkent. 2013.

Дружинин В.Н. Психология: общих способностей. С-Петербург Питер 1999.

Kamalova , LA, Zokirova , VG (2015). Universitetda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik qadriyatlarini shakllantirish, Evropa tadqiqotlari sharhi, 7 (5), 1-9.

Psixologiya fanidan nomzodlik dissertatsiyasi. Qozon. Minaxmetova, AZ, Epaneshnikov, VV, Shagivaleeva, GR (2012). O'qituvchi va o'quvchining psixotipi korrelyatsiyasi ta'limdagagi o'zaro ta'sirning samaradorligi omili sifatida // Juhon amaliy fanlar jurnali 20-jild (Pedagogika va psixologiya bo'yicha maxsus nashr).

Tarmoqlar innovations ta'lim muassasasini rivojlantrish omili sifatida (2016)<http://anyanova.tomsk.ru/wp-content/uploads/2013/02/cetevoy.pdf>.

TA'LIM JARAYONINI SAN'AT DARAJASIGA KUTARISH MEVASI ZAVQDIR

Ro'ziyeva Zulayxo Samatovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Pedagogik ta'lismi va amaliyot" bo'limi boshlig'i

Annotatsiya; Ushbu maqolada bugungi kundagi bo'lajak mutaxassislarini tayyorlash tizimida talabalarning ta'lismi muassasalari, tashkilot va korxonalarda o'tkaziladigan malakaviy amaliyot alohida o'rinni tutishi, amaliyotga yo'naltiruvchi oliy ta'lismi muassasalari va qabul qiluvchi ta'lismi muassasalari, tashkilot va korxonalarda mazmuniga qo'yiladigan talablar tashkiliy-metodik nuqtai nazaridan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar; pedagogik amaliyot, tahlillar, ilm-fan, texnika, ta'lismi, nazariya, amaliyot, integratsiya, ko'nikma, professional, kompetensiya, xarakter, tavsiyalar, islohotlar, uzbekistik.

Bugun yangi O'zbekiston jahon hamjamiyati safida o'z o'rniiga ega bo'lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda.

Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lismi-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga chambarchas bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu boisdan, mamlakatimizda ta'lismi va tarbiyaga mas'ul sohalarini sifat jihatdan jadal rivojlantrish, zamon talablariga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida muloqotining to'g'ri tashkil etilishi, mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, "Yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga etkazish, ta'lismi sifatini tubdan yaxshilash maqsadida, avvalo, o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalarni ilg'or xalqaro mezonlarga moslashtirish, bolalarning tahlili va kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantrish lozim". So'nggi yillarda qaysi sohada islohotlar, ulkan loyihalar bo'lmashin, albatta, unga mos mutaxassislar tayyorlash ham kun tartibiga chiqadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PF-134-sun Farmoni, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lismi sifatini oshirish va pedagogik kadrlar tayyorlovchi Oliy ta'lismi muassasalari faoliyatini yanada rivojlantrish chora tadbirleri" to'g'risidagi PQ-289-sun qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-290-sun qarorlari ijrosini ta'minlash, shuningdek ta'lismi sifatini oshirish, universitet faoliyatiga ilg'or ta'lismi dasturlarini joriy qilish sifatini hamda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish to'g'risidagi universitet rektorining 2022-yil 9-avgustdagagi 251-I-sun buyrug'iga asosan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida "Pedagogik ta'lismi va amaliyot" bo'limi tashkil etilgan.

Bo'lim xodimlari Oliy ta'lismi rivojlantrish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi, Milliy-tadqiqot instituti, Respublika ta'lismi markazi hamda O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi, Maktabgacha ta'lismi tashkilotlari direktori va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, T. N Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutining malakali mutaxassislaridan iborat tarkibda shakllantirilgan.

Mazkur bo'limning asosiy maqsadi, Universitetda ta'lismi sifatini oshirish, universitet faoliyatiga ilg'or ta'lismi dasturlarini joriy qilish hamda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yish, universitetning jozibadorligini oshirish, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash, yangi texnologiyalarni hisobga oлган holda universitetning ilmiy-tadqiqot va raqamli ekotizimini shakllantirish, ish beruvchilar, ota-onalar va talabalarda universitetga bo'lgan ijobjiy fikrni shakllantirish, O'zbekistonning ijtimoiy va pedagogik salohiyatiga hissasini qo'shishdan iboratdir.

Bugungi kunda "Pedagogik ta'lismi va amaliyot" bo'limi tomonidan 2023 yil uchun amalga oshiriladigan ishlar, 2026 yilga qadar amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mexanizmlari ishlab chiqilgan va muddatlar grafigi rejalshtirilgan.

Birinchidan Universitet faoliyatini takomillashtirish uchun avvalo ta'lismi dasturlari mukammal bo'lishi muhim. Ta'lismi dasturlarining maktabgacha, maktabdan tashqari, umumiyo'rta, o'rta maxsus va professional ta'lismi muassasalari ta'lismi dasturlari bilan uyg'unligini ta'minlash" maqsadida vazifalar belgilangan. Jumladan, fanlardagi mavzular takrorlanmasligi, ba'zi mavzularning o'quv dasturlaridan

qolib ketmasligi, soddadan murakkabga qarab ta'minlanishi borasida ta'limgardagi turlari bo'yicha tegishli Maktabgacha va mablag'i vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limgardagi fan va innovatsiyalar vazirliklardan 23 ta fanlarga doir ta'limgardagi dasturlari olindi va jamlandi.

Jamlanma materiallar har bir ta'limgardagi yo'nalishi, shu jumladan, umumta'limgardagi o'quv fanlari, bo'yicha ekspertiza qilish uchun Universitetning 52 ta kafedralaridan shakllantirilgan ekspertlar ishchi guruhiga taqdim etilgan va bugungi kunda "Pedagogik ta'limgardagi amaliyot" bo'limgardagi tomonidan ishchi guruh faoliyatini muvofiqlashtirib borilmoqda.

Yil yakuniga qadar ta'limgardagi dasturlarini o'rganish, tahlil qilish va uyg'unligini ta'minlashga doir takliflar ishlab chiqilib, universitetning kuzatuv kengashiga kiritilishi rejalashtirilgan.

Ikkinchidan Belgilangan vazifalar bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlar ishlari bilan tanishib, xorijiy mamlakatlardan (AQSh, Evropa va Osiyo) va mahalliy olimlarning tajribalari asosida talabalarning pedagogik faoliyatga munosabatlari, pedagoglarning mavqe darajasi o'rganildi va tahlil qilindi. Tajribalar va so'rovnoma natijalari asosida rivojlangan xorij mamlakatlari jumladan, AQSh, Finlandiya, Germaniya, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreya singari davlatlar tajribalarini inobatga olgan holda talabalarning pedagogik kasbga bo'lgan munosabatini o'rganish maqsadida so'rovnomalar tuzish, o'tkazish, tahlil qilish uchun "Pedagogik kasbiga munosabatlarni o'rganish" nomli uslubiy qo'llanma loyihasi yaratildi.

So'rov natijalari asosida tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish hamda kelgusida ish beruvchi hamda bitiruvchi talabalarni pedagogik faoliyatga motivatsiya qilish usullarini ishlab chiqish rejalashtirilgan. Universitetning ta'limgardagi olish jozibadorligiga ta'sir etuvchi faktorlar o'rganilib, tahlil qilinmoqda va chora-tadbirlarni ishlab chiqish ustida ishlar olib borilmoqda.

Uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'limgardagi huzuridagi Maktabgacha ta'limgardagi tashkiloti direktori va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti xodimlari bilan hamkorlikda, Universitetda ta'limgardagi olish jozibadorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, bitiruvchilarning o'quv jarayoni va ishlab chiqarishdagi amaliyotni tashkil etish borasida fikr-mulohazalarini o'rganilyapti.

Hamkorlikning dolzarb maqsadi, Universitetning ta'limgardagi olish jozibadorligini oshirish bo'yicha horijiy tajribalar asosida chora-tadbirlarni ishlab chiqish va belgilangan vazifalar samaradorligini o'rganish va tahlil qilishdir.

To'rtinchidan, shu davrgacha amalga oshirilgan ishlar tahlil qilindi, keyin barcha o'quv dasturlari bir joyga to'plandi, o'quv dasturlarini uzviyligi ustida ishlagan tajribalari professor o'qituvchilardan sohalar, fanlar kesimida Ishchi guruhlar tashkil etildi va ularning yordamida tahlillar asosida uzlusiz ta'limgardagi tizimida uyg'unlashtirish yo'nalishlarini quyidagicha rejalashtirdik:

1. O'quv dasturlarining universitet tegishli fanlari ta'limgardagi dasturlari bilan.
- 1.1. Maktabgacha ta'limgardagi dasturi.
- 1.2. Umumiy o'rta ta'limgardagi 1-11-sinf umumta'limgardagi fanlari o'quv dasturlari.
- 1.3. O'rta maxsus (akademik litsey) va professional (kasb-hunar maktabi) ta'limgardagi muassasalarini o'quv dasturlari.

1.4. Oliy ta'limgardagi universitetning tegishli o'quv fan kesimida olindi.

1.5. Maktabdan tashqari ta'limgardagi («Barkamol avlod» bolalar maktablari to'garaklari o'quv dasturlari) dasturlari.

2. Maktabgacha ta'limgardagi o'quv dasturi universitetning maktabgacha ta'limgardagi fakultetining tegishli ta'limgardagi dasturlari bilan.

2.1. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'limgardagi tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi.

3. Pedagogika yo'nalishidagi o'rta maxsus professional ta'limgardagi dasturlari universitetning tegishli fan ta'limgardagi dasturlari bilan.

3.1. Pedagogika kolleji ta'limgardagi dasturlari.

Uyg'unlashtirish jarayoni qamrab olgan ta'limgardagi dasturlari

Maktabgacha ta'limgardagi dasturi;

Umumiy o'rta (maktab) va o'rta maxsus (akademik litsey) ta'limgardagi dasturi;

Professional (kasb-hunar maktabi) ta'limgardagi dasturi;

Oliy ta'limgardagi (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti)

Maktabdan tashqari ("Barkamol avlod" bolalar maktabi) ta'limgardagi dasturi.

Umumiy o'rta ta'limgardagi fanlari o'quv dasturlari Nizomiy nomidagi TDPUNing tegishli fanlar o'quv dasturlari bilan uyg'unlashtirishi belgilandi.

Ta'limgardagi dasturlarini tahlil qilish mezonlari quyidagicha:

uzviyligi ta'minlanmagan mavzular;
nazariydan amaliyga o'tkazilishi taklif etilayotgan mavzular;
qisqartirishga taklif etilgan mavzular;
yangi kiritishga yoki takomillashtirishga taklif etilayotgan mavzular;
boshqa ta'lim turiga o'tkaziladigan mavzular o'rganiladi, tahlil qilinadi, dasturlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlanadi.

Shuni unutmaslik kerakki, yuqori darajadagi muvaffaqiyatga erishgan davlatlar yoki sohalarda deyarli barcha ishlar jamoaviy shaklda bajariladi, bunday holatda bir kishininggina keng ko'lamli ko'nikmalarga ega bo'lishiga ishonib qolish kerak emas

Beshinchidan, Universitetni Xalqaro e'tirof etilgan standartlar talablari asosida qayta tashkil etish, ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklarning xalqaro standartlar talablari asosida ishlab chiqish, ilmiy saloxiyatni xalqaro reytinglarda e'tirof etilishiga erishish hamda moddiy texnik bazasini zamonaviy talab darajasiga olib chiqish chora-tadbirlarini ishlab chiqish vazifa etib belgilangan.

Reytingdagi yuqori o'rinalar universitetda ishlash uchun eng yuqori malakali olimlar va intellektual elitani jalg qilish, hamda Jahon va milliy miqyosda universitetlarning raqobatbardoshligini oshiradi, OTM ma'muriyatiga eng katta maqsadlarni qo'yish, universitetni dunyoga tanitish, eng yaxshi ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish va ularga erishish imkonini beradi.

Mamlakatimiz izchillik bilan islohotlarni amalga oshirar ekan, milliy reytingimizni belgilayotgan agentliklar ularni munosib baholamoqda. Bugungi kunga kelib mamlakatimiz oly ta'lim muassasalarini ham xalqaro reytinglardan birin-ketin o'rinni ola boshladi. Ayrim oly ta'lim tashkilotlari esa xalqaro reytinglardagi o'rnni mustahkamlab bormoqda. Xususan, 2023-yil uchun QS Osiyo Universitetlar reytingi (QS Asia University Rankings 2023) da ilk bor respublikamizning 8 ta oly ta'lim muassasasi TOP 1000 talikdagisi Osiyorning eng kuchli universitetlari qatorida Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti ham 41 o'rindan joy oldi.

Maqsadimiz, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ta'lim sifatini oshirish, universitet faoliyatiga ilgor ta'lim dasturlarini joriy qilish hamda zamonaviy bilim va pedagogik texnologiyalarni qo'llash kunikmalariga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning samarali tizimini yo'lga qo'yishdir.

Oltinchidan, hozirgi nazariya va amaliyot talabalarga javob tariqasida bir tomonlama, o'ta chuqur ixtisoslashuv jarayonida ta'lim tizimini uzluksiz takomillashtirib borishni, nazariya va amaliyot integratsiyasida mutaxassislardan keng va chuqur dunyoqarashga ega bo'lishlari zarurligini taqozo qiladi. Malakaviy amaliyot davrida muassasalarida talabalarning tashkiliy, konstruktivli, rejalashtirishi, komunkativ tadqiq qilish kabi pedagogik mahoratni shakkantirish bilan birga individual va insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Agar talabalar nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni, hamda tadbiq etishni o'rgansalar va bu jarayonda nazariy xulosalarga kelsalar ularning olgan bilimlari qatiy ishonchga aylanadi. Ta'lim muassasalarida nazariya va amaliyot integratsiya ishlari darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, amaliyotga yuboruvchi va qabul qiluvchi tashkilot, korxona va ta'lim muassasalarini talablari qayta ko'rib chiqilishi va takomillashtirilishi, axborot texnologiyalaridan yanada kengroq foydalanish, masofaviy ta'lim nazariya va amaliyot integratsiyasi asoslarini yaratish mutaxassislarni ijtimoiy mavqeini oshirish lozim.

Jumladan yuqoridagilarni inobatga olgan holda universitetda 443-U sonli buyruq asosida "Oltin fond" guruhlari tashkil etildi. "Oltin fond" guruhlarini tashkil etishdan maqsad, pedagogika sohasida ilmiy va ijodiy salohiyatni rivojlantiruvchi intellektual, raqobatbardosh yoshlarni tayyorlashdir. Bu borada yuksak iqtidor va iste'dod sohiblariga pedagogika sohasining tegishli fanlari bo'yicha o'z qobiliyatlarini namoyon etish va ularni rag'batlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.

Bunda, uchinchi va to'rtinchchi kurs talaba yoshlar ikki bosqichda saralash jarayonlarida qatnashishdi va eng yuqori ko'satkichni to'plagan iqtidorli talabalar guruhi uchun barcha fanlardan maxsus ishchi dasturlari tuzildi, ular namunaviy dastur asosida bo'lgan holda fandagi oxirgi muhim yangiliklarni hisobga olib va chuqurlashtirilib o'tilishi belgilab qo'yildi.

Xulosa o'rinda shuni ta'kidlash lozimki, xorij mamlakatlari singari ta'lim sifatini ta'lim dasturlarini sifat jihatdan yangilash orqali yuqori natijakorlikka erishish rejalashtirilmoqda. Shuningdek, universitetni xalqaro reytinglardan joy olishini ta'minlash chora-tadbirlarini tayyorlash va amalga oshirish rejalashtirilmoqda. O'qituvchi kasbining obro'-e'tiborini xar tomonlama oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, uzluksiz kasbiy rivojlanish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Uzluksiz kasbiy rivojlanish - bu shaxsiy yoki professional sabablarga ko'ra doimiy, ixtiyoriy ravishda o'z-o'zini motivatsiya qilishdir. Bu shaxsning raqobatbardoshligi va ishga layoqatliligi uchun muhim, shu bilan birga ijtimoiy inklyuzivlikni, faol fuqarolikni va shaxsiy rivojlanishni oshiradi.

Yuqoridagi mulohazalarni umumlashtirib, shuni alohida qayd etish mumkinki, oliv ta'lim muassasasi bitiruvchilarini raqobatbardoshligini ta'minlash uchun birinchi navbatda oliv ta'lim muassasasining raqobatbardoshligini ta'minlash lozim. Vaholanki, raqobatbardosh oliv ta'lim muassasasigina rivojlanib borayotgan mehnat munosabatlari bozoriga zamonaviy va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan, jismonan bakuvvat, aqlan yetuk, o'z kasbining ustasi bo'lgan raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlay oladi. Shundagina, bu kadrlar bilan mamlakatimizda olib borilayotgan bozor munosabatlariiga asoslangan demokratik davlat va jamiyat qurilishi jarayonini jadallashtirish, jonajon O'zbekistonimizni rivojlangan davlatlar qatorida munosib o'rinn egallashini ta'minlash mumkin.